Аннотация: В статье анализируются роль и значение механизмов государственно-частного партнерства в подготовке кадров среднего звена, востребованных на международном рынке труда. Рассматриваются вопросы формирования квалифицированных специалистов в соответствии с потребностями рынка труда посредством развития взаимодействия между системой профессионального образования, работодателями и частными образовательными организациями. Особое внимание уделяется механизмам адаптации образовательных программ к требованиям рынка труда, развитию дуального образования, организации практико-ориентированного обучения и повышению участия работодателей в процессе подготовки кадров. В исследовании анализируются организационно-экономические аспекты подготовки специалистов среднего звена с учетом динамично меняющихся требований международного рынка труда, современных профессиональных компетенций и трудовых стандартов. В результате разработаны предложения по повышению качества подготовки кадров и уровня занятости, а также усилению конкурентоспособности выпускников на международном рынке труда посредством эффективной организации государственно-частного партнерства.

Ключевые слова: международный рынок труда, кадры среднего звена, государственно-частное партнерство, профессиональное образование, дуальное образование, профессиональные компетенции, требования рынка труда, подготовка кадров, занятость, конкурентоспособность.

Abstract: This article analyzes the role and significance of public-private partnership mechanisms in training mid-level professionals who are in demand in the international labor market. It examines the development of cooperation among vocational education institutions, employers, and private educational organizations to ensure the preparation of qualified specialists in accordance with labor market requirements. Particular attention is paid to mechanisms for adapting educational programs to labor market needs, developing dual education, organizing practice-oriented training, and strengthening the participation of employers in the training process. The study analyzes the organizational and economic aspects of preparing mid-level specialists in the context of changing requirements of the international labor market, modern professional competencies, and occupational standards. As a result, proposals are developed to improve the quality of workforce training and employment opportunities, as well as to enhance the competitiveness of graduates in the international labor market through effective public-private partnership mechanisms.

Keywords: international labor market, mid-level professionals, public-private partnership, vocational education, dual education, professional competencies, labor market requirements, workforce training, employment, competitiveness.



KIRISH

Bugungi kunda globallashtirish va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi mehnat bozorining tarkibiy tuzilishi hamda ish beruvchilarning kadrlarga bo'lgan talablarini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, yangi kasb va mutaxassisliklarning shakllanishi natijasida mehnat bozorida zamonaviy kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan mutaxassislarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, logistika, qurilish, energetika, axborot texnologiyalari va boshqa sohalarda amaliy ko'nikmalarga ega o'rta bo'g'in kadrlarga bo'lgan talabning ortishi ularni tayyorlash tizimini mehnat bozori ehtiyojlari bilan yanada yaqinlashtirishni taqozo etmoqda. Xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni shakllantirishda faqat nazariy bilim berishning o'zi yetarli emas. Zamonaviy ish beruvchilar kasbiy malaka bilan bir qatorda, amaliy ko'nikmalar, raqamli savodxonlik, xorijiy tillarni bilish, jamoada ishlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va yangi texnologiyalarni tez o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassislarga ehtiyoj sezmoqda. Shu bois professional ta'lim mazmunini iqtisodiyotning real sektori talablariga moslashtirish, ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda o'quvchilarning bevosita ishlab chiqarish jarayonida amaliy tajriba orttirishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda ham professional ta'lim tizimini zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son¹ "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy asoslardan biridir. Mazkur hujjatning qabul qilinishi kasbiy ta'lim sifatini oshirish, ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosida yangilash va mutaxassislar tayyorlash tizimini xalqaro mezonlarga yaqinlashtirishning dolzarbligini ko'rsatadi. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklikni professional ta'lim tizimiga keng joriy etish mazkur yo'nalishdagi muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 30-apreldagi 216-son² "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Kasbiy ta'lim agentligi hamda Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi qarorida kasbiy ta'lim va kasbga o'qitish tizimida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, texnikumlarda davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni tashkil etish hamda o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash jarayoniga xususiy sektorni jalb etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish vazifalari belgilangan. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining afzalligi shundaki, bunda davlatning institutsional imkoniyatlari va xususiy sektorning moliyaviy, texnologik hamda amaliy salohiyati o'zaro uyg'unlashadi. Xususiy korxonalarni kadrlar tayyorlash jarayoniga jalb qilish orqali o'quv dasturlarini real ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirish, zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan o'quv-amaliy bazani shakllantirish, mutaxassislarni korxonalarda amaliyot o'tashini kengaytirish va bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini oshirish mumkin. Ayniqsa, dual ta'lim mexanizmlarini rivojlantirish orqali ta'lim oluvchining nazariy bilimlari bilan amaliy ko'nikmalarini bir vaqtning o'zida shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Xalqaro mehnat bozoriga yo'naltirilgan o'rta bo'g'in kadrlarni tayyorlashda davlat-xususiy sheriklikning samaradorligi, avvalo, ta'lim muassasalari va ish beruvchilar manfaatlarining muvofiqlashtirilishiga bog'liq. Bunda xususiy sektorning kadrlar tayyorlashdagi ishtiroki faqat amaliyot tashkil etish bilan cheklanib qolmasdan, kasblar va mutaxassisliklarga bo'lgan talabni aniqlash, o'quv dasturlarini ishlab chiqish, kasbiy malakalarni baholash, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish hamda bitiruvchilarni ishga qabul qilish jarayonlarini ham qamrab olishi lozim. Shu nuqtai nazardan, xalqaro mehnat bozori talablariga javob beradigan o'rta bo'g'in kadrlarni tayyorlashda davlat-xususiy sheriklikning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, xususiy sektorning ta'lim jarayonidagi ishtirokini kengaytirish, kasbiy ta'lim dasturlarini ish beruvchilar ehtiyojlariga moslashtirish va amaliy tayyorgarlik sifatini oshirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Mazkur yo'nalishdagi mexanizmlarni samarali tashkil etish natijasida professional ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi nomuvofiqlikni kamaytirish, bitiruvchilarning bandlik imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularning xalqaro mehnat bozoridagi kasbiy raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro mehnat bozorida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar professional ta'lim tizimi oldiga kadrlarni nafaqat mavjud kasblar bo'yicha, balki yangi texnologiyalar, raqamli transformatsiya, yashil iqtisodiyot va xalqaro ishlab chiqarish standartlariga mos kompetensiyalar asosida tayyorlash vazifasini qo'yimoqda. Shu nuqtai nazardan, o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash tizimining samaradorligi ta'lim muassasasining ichki imkoniyatlari

1 <https://www.lex.uz/uz/docs/-7166588>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-8168083>



bilangina emas, balki ish beruvchilar, davlat organlari va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik darajasi bilan ham belgilanadi. Xalqaro mehnat tashkiloti professional va texnik ta'limni mehnat bozori talablariga moslashtirishda ish beruvchilar bilan yaqin hamkorlik, amaliy ta'lim va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini muhim vosita sifatida ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida ushbu masalaning dolzarbligi yanada ortmoqda. 2026-yil 30-apreldagi 216-son Vazirlar Mahkamasi qarori bilan Kasbiy ta'lim agentligining asosiy vazifalaridan biri xalqaro standartlarga mos yuqori malakali o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashni ta'minlash sifatida belgilangan. Mazkur hujjatda kasbiy ta'lim va kasbga o'qitish tizimida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, texnikumlarda davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni tashkil etish hamda o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash jarayoniga xususiy sektorni jalb etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish vazifalari ham belgilangan. Mazkur me'yoriy yondashuvdan kelib chiqib, davlat-xususiy sheriklikni faqat ta'lim muassasasiga xususiy mablag' jalb qilish mexanizmi sifatida baholash yetarli emas. Uning mazmuni ancha keng bo'lib, kadrlar tayyorlashning barcha bosqichlarini, ya'ni mehnat bozori talabini aniqlashdan tortib, o'quv dasturlarini ishlab chiqish, moddiy-texnik bazani rivojlantirish, ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish, malakani baholash va bitiruvchini ish bilan ta'minlashgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab olishi lozim.

1-jadval.

Xalqaro mehnat bozoriga o'rta bo'g'in kadrlarni tayyorlashda davlat-xususiy sheriklikning asosiy mexanizmlari

Mexanizm	Davlatning roli	Xususiy sektorning roli	Kutilayotgan natija
Mehnat bozori ehtiyojlarini prognozlash	Mehnat bozori va tarmoqlar kesimida prognozlarni shakllantirish	Bo'sh ish o'rinlari, texnologik talab va kasbiy kompetensiyalar bo'yicha ma'lumot berish	Kadrlar tayyorlash hajmi va yo'nalishlarining talabga moslashishi
O'quv dasturlarini ishlab chiqish	Malaka talablari va ta'lim standartlarini belgilash	Ish beruvchi kompetensiyalari va amaliy modullarni shakllantirishda ishtirok etish	Mehnat bozori talablariga mos o'quv dasturlari
Dual ta'lim	Huquqiy va tashkiliy sharoit yaratish	Korxonada amaliy o'qitish va ustoz-shogird tizimini tashkil etish	Nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarning integratsiyasi
Moddiy-texnik bazani rivojlantirish	Binolar, infratuzilma va davlat mablag'lari bilan ta'minlash	Zamonaviy uskuna, texnologiya va ishlab chiqarish tajribasini jalb qilish	Zamonaviy o'quv laboratoriyalari va ustaxonalar
O'qituvchilar malakasini oshirish	Pedagoglarni qayta tayyorlash va sertifikatlash	Ishlab chiqarishdagi mutaxassislarni ta'lim jarayoniga jalb qilish	Amaliy tajribaga ega pedagogik kadrlar
Malakani baholash va sertifikatlash	Milliy malaka tizimini muvofiqlashtirish	Kasbiy standartlar va amaliy imtihonlarda ishtirok etish	Kompetensiyalarning ish beruvchi tomonidan tan olinishi
Xorijiy sertifikatlash	Xalqaro hamkorlikni tashkil etish	Xalqaro standart va sertifikat talablarini joriy etish	Bitiruvchining xalqaro mehnat bozorida tan olinishi
Ishga joylashtirish	Bandlik xizmatlari va elektron platformalarni rivojlantirish	Bitiruvchilarni ishga qabul qilish va stajirovka tashkil etish	Ta'limdan bandlikka o'tish davrining qisqarishi
Ta'limni moliyalashtirish	Subsidiyalar, grantlar va moliyaviy imtiyozlar	Investitsiya, homiylik va korporativ buyurtmalar	Ta'limning moliyaviy barqarorligi
Kadrlarni qayta tayyorlash	Qayta tayyorlash dasturlarini qo'llab-quvvatlash	Yangi texnologiyalar bo'yicha talabni shakllantirish	Mehnat resurslarining moslashuvchanligi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, davlat-xususiy sheriklikning eng muhim jihati tomonlarning funksiyalarini o'zaro to'ldirishdan iborat. Davlat ta'lim tizimining huquqiy va institutsional asoslarini yaratadi, xususiy sektor esa ishlab chiqarish muhiti, texnologik tajriba, amaliy bilim va mehnat bozori haqidagi real ma'lumotlarni taqdim etadi. Bunday modelda davlat barcha xarajatlarni mustaqil ravishda moliyalashtiruvchi subyekt sifatida emas, balki sheriklik muhitini shakllantiruvchi, standartlarni belgilovchi va sifatni nazorat qiluvchi institutsional ishtirokchi



sifatida namoyon bo'ladi. Birinchi muhim mexanizm — mehnat bozori talabini prognozlash va kadrlar tayyorlash parametrlarini belgilash. An'anaviy modelda ta'lim yo'nalishlari ko'pincha mavjud o'quv bazasi va tarixiy ehtiyojlardan kelib chiqib shakllantirilishi mumkin. Biroq xalqaro mehnat bozori sharoitida bunday yondashuv yetarli emas. Ish beruvchilarning real ehtiyoji, yangi texnologiyalarning joriy etilishi, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishning kengayishi, migratsiya oqimlari va kasblarning transformatsiyasi muntazam tahlil qilinishi kerak. ILO ham kasbiy ta'lim tizimlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish, kelgusidagi ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyojni oldindan aniqlash va uni o'quv dasturlariga integratsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Shu asosda maqolada "mehnat bozori — kasbiy ta'lim — xususiy sektor" uch tomonlama integratsiya modeli taklif etiladi. Ushbu modelda har bir hudud va iqtisodiyot tarmog'i bo'yicha ish beruvchilarning kadrlarga bo'lgan ehtiyoji elektron ma'lumotlar bazasiga kiritiladi. Mazkur ma'lumotlar asosida texnikumlarda qabul parametrlari, kasblar tarkibi va o'quv dasturlarining mazmuni shakllantiriladi. Natijada "ta'lim uchun kadr tayyorlash" tamoyilidan "mehnat bozori uchun kadr tayyorlash" tamoyiliga o'tish imkoniyati paydo bo'ladi.

Ikkinchi muhim yo'nalish — o'quv dasturlarini ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqish. O'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlashda nazariy bilimlar bilan bir qatorda, muayyan ishlab chiqarish operatsiyalarini bajarish, uskunalardan foydalanish, texnika xavfsizligi talablariga rioya qilish, raqamli dasturlar bilan ishlash, texnik hujjatlarni tushunish va jamoaviy ish ko'nikmalari ham shakllantirilishi zarur. Shu sababli xususiy sektor vakillari o'quv dasturlarining alohida modullarini ishlab chiqishda bevosita ishtirok etishi maqsadga muvofiq. ILO tajribasida ham korxona va professional ta'lim muassasalari hamkorligi orqali bozor ehtiyojlarini aniqlash, qo'shma o'quv dasturlarini ishlab chiqish va ularni amaliyot natijalariga ko'ra takomillashtirish samarali mexanizm sifatida ko'rsatilgan. Demak, davlat-xususiy sheriklikning mazmuni "korxona — amaliyot bazasi" modelidan "korxona — ta'lim dasturining hamkor ishlab chiquvchisi" modeliga kengaytirilishi lozim. Uchinchi mexanizm — dual ta'lim va ishlab chiqarish amaliyotini kengaytirish. O'rta bo'g'in kadrlar uchun kasbiy kompetensiyaning shakllanishi bevosita real ish muhitida amaliy mashg'ulotlarni o'tash bilan bog'liq. Texnikumdagi nazariy mashg'ulotlar va korxonadagi amaliy faoliyatning integratsiyasi natijasida talaba ish joyidagi texnologik jarayon, mehnat intizomi, ishlab chiqarish standartlari va jamoaviy faoliyatni bevosita o'rganadi. Bu esa bitiruvchining ta'limdan bandlikka o'tish davrini qisqartirish imkonini beradi.

To'rtinchi yo'nalish — xususiy sektorning moddiy-texnik bazani rivojlantirishdagi ishtiroki. Zamonaviy kasblarni o'rgatish uchun texnikumlarning laboratoriya va ustaxonalari real ishlab chiqarishda qo'llaniladigan texnologiyalarga imkon qadar yaqin bo'lishi kerak. 216-son qarorda ham texnikumlarning laboratoriya va ustaxona bazalarini zamonaviy texnika, asbob-uskunalar va sarflov materiallari bilan ta'minlash vazifasi belgilangan. Shu sababli davlat-xususiy sheriklik asosida "korxona — texnikum" hamkorlik laboratoriyalarini tashkil etish, korxonalarda ishlatiladigan uskunalarning o'quv analoglarini o'rnatish va ta'lim oluvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga o'rgatish mumkin. Bunday mexanizmning iqtisodiy samarasi ham mavjud. Agar davlat texnikumning barcha moddiy-texnik ehtiyojlarini mustaqil moliyalashtirsa, yangi texnologiyalarning tezkor almashinuvi sharoitida mavjud uskunalarni muntazam yangilash qo'shimcha xarajatlarni talab qiladi. Xususiy sektorni jalb etish orqali esa investitsiya yukining bir qismi korxonalar, tarmoq birlashmalari va boshqa manfaatdor subyektlar bilan taqsimlanadi. Bunda sheriklik shartnomalarida investitsiya hajmi, uskunadan foydalanish tartibi, o'quvchilarni amaliy tayyorlash majburiyati va natijadorlik ko'rsatkichlari aniq belgilanishi zarur.

Beshinchi yo'nalish — o'qituvchilarni ishlab chiqarish jarayoniga yaqinlashtirish. Kasbiy ta'lim o'qituvchisining faqat pedagogik bilimga ega bo'lishi zamonaviy ishlab chiqarish uchun yetarli emas. Texnologiyalarning tez yangilanishi sababli pedagoglarning ishlab chiqarish korxonalarida qisqa muddatli stajirovka o'tashi, yangi uskunalarni o'rganishi va ishlab chiqarish mutaxassislari bilan tajriba almashishi zarur. Shu bilan birga, xususiy sektorda faoliyat yuritayotgan tajribali mutaxassislarni texnikumlarda amaliyotchi o'qituvchi yoki mentor sifatida jalb etish mumkin. Oltinchi mexanizm — malakani mustaqil va amaliy baholash tizimini rivojlantirish. Xalqaro mehnat bozoriga chiqayotgan bitiruvchi uchun diplomning o'zi bilan bir qatorda uning amaliy kompetensiyalarini tasdiqlovchi sertifikatlar ham muhim ahamiyatga ega. 216-son qaror bilan 2026/2027 o'quv yilidan boshlab boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim dasturlari tegishli ravishda Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi hamda Milliy malakalar ramkasining 3-, 4- va 5-darajalariga muvofiq diplomlar bilan bog'lanishi, qisqa muddatli kurslar bitiruvchilariga esa egallangan kompetensiya bo'yicha sertifikat berilishi belgilangan. Bu yondashuv o'rta bo'g'in kadrlarining malakasini xalqaro mehnat bozori talablariga yaqinlashtirish uchun muhim institutsional asos yaratadi. Yettinchi yo'nalish — xalqaro sertifikatlash va xorijiy hamkorlar bilan qo'shma ta'lim dasturlarini rivojlantirish. Xalqaro mehnat bozorida ishlashni maqsad qilgan mutaxassis uchun faqat milliy ta'lim hujjatiga ega bo'lish yetarli bo'lmasligi mumkin. Shu sababli kasbiy ta'lim muassasalari xalqaro kasbiy standartlar, xorijiy malaka sertifikatlari va ish beruvchilar tomonidan tan olinadigan kompetensiya modullarini o'quv jarayoniga bosqichma-bosqich kiritishi lozim. 216-son qarorda ham xorijiy hamkorlar bilan qo'shma va xalqaro ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash hamda yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish vazifalari belgilangan.



2-jadval.

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi kadrlar tayyorlash modelining natijadorlik ko'rsatkichlari

Yo'nalish	An'anaviy yondashuvdagi asosiy muammo	Davlat-xususiy sheriklik asosidagi yondashuv	Natijani baholash ko'rsatkichi
Kadrlar tarkibi	Ta'lim yo'nalishi va bozor talabi o'rtasida nomuvofiqlik	Korxona ehtiyojlari asosida qabul parametrlarini shakllantirish	Talab yuqori kasblar ulushi
O'quv dasturi	Nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovut	Ish beruvchi ishtirokida kompetensiyaga asoslangan dastur	Amaliy modullar ulushi
Amaliyot	Qisqa muddatli va formal amaliyot	Uzoq muddatli dual ta'lim va korxona mentorligi	Amaliyot soatlarining ulushi
Texnologiya	Eskirgan o'quv uskunolari	Korxona texnologiyalarini ta'limga integratsiya qilish	Zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan laboratoriyalar ulushi
Pedagoglar	Ishlab chiqarishdagi yangi texnologiyalardan uzilish	Korxonalarda stajirovka va mentorlik	Ishlab chiqarishda stajirovka o'tagan pedagoglar ulushi
Sertifikatlash	Diplomga asoslangan baholash	Kompetensiyaga asoslangan amaliy baholash	Sertifikatlangan bitiruvchilar ulushi
Bandlik	Bitiruvchi va ish beruvchi o'rtasida axborot uzilishi	Korxona buyurtmasi va ishga joylashtirish tizimi	Bitirgandan keyingi 6 oylik bandlik darajasi
Xalqaro mobillik	Xalqaro talablar bilan nomuvofiqlik	Xalqaro standart va sertifikatlarni joriy etish	Xorijda ishlayotgan bitiruvchilar ulushi
Moliyalashtirish	Davlat byudjetiga yuqori bog'liqlik	Davlat va xususiy investitsiyalarni birlashtirish	Xususiy investitsiyalar hajmi
Monitoring	Ta'lim natijasi bilan bandlik natijasi alohida baholanadi	Ta'lim-bandlik zanjiri bo'yicha yagona monitoring	Bitiruvchi bandligi va ish beruvchi qoniqishi

Mazkur modelda samaradorlikni baholashda faqat o'quvchilar soni yoki bitiruvchilar sonidan foydalanish yetarli emas. Eng muhim ko'rsatkichlardan biri bitiruvchining ta'limni tamomlagandan keyingi bandlik holati bo'lishi kerak. Bunda bitiruvchining olgan kasbi bo'yicha ishga joylashgani, ish haqining darajasi, ish joyining barqarorligi, xalqaro sertifikatlarning mavjudligi va ish beruvchining bitiruvchi kompetensiyalaridan qoniqish darajasi hisobga olinishi lozim. O'zbekiston bo'yicha Jahon bankining 2025-yilgi tadqiqotida kasbiy ta'lim va ko'nikmalar tizimini, jumladan, mehnat migrantlari uchun tayyorgarlik imkoniyatlarini takomillashtirish zarurati qayd etilgan. Bu esa o'rta bo'g'in kadrlarini faqat ichki mehnat bozoriga emas, balki tashqi mehnat bozoriga ham tayyorlash masalasini alohida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, Jahon bankining O'zbekiston bo'yicha ish o'rinlari va ko'nikmalar masalalariga bag'ishlangan tahlillarida iqtisodiy o'sish uchun mehnat bozori talablariga mos malakaga ega ishchi kuchini shakllantirish muhimligi ta'kidlangan. Bu holatda davlat-xususiy sheriklikning ustun jihati shundaki, xususiy sektor mehnat bozorida real talabni ta'lim tizimiga tezroq yetkazib bera oladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sheriklikning samarali modeli uchta asosiy tamoyilga tayanishi kerak.

Birinchisi — talabga yo'naltirilganlik, ya'ni kadrlar soni va kasbiy tarkibi ish beruvchilarning real ehtiyojlari asosida shakllantirilishi. Ikkinchisi — amaliy yo'naltirilganlik, ya'ni ta'lim jarayonining sezilarli qismi real ishlab chiqarish muhiti bilan bog'lanishi. Uchinchisi — natijadorlikka asoslangan moliyalashtirish, ya'ni davlat va xususiy sektor tomonidan ajratiladigan mablag'lar faqat o'quv jarayonining o'ziga emas, balki bitiruvchining egallagan kompetensiyasi va keyingi bandlik natijalariga ham bog'lanishi. Shu asosda maqolada xalqaro mehnat bozoriga o'rta bo'g'in kadrlarni tayyorlash uchun "Davlat — texnikum — xususiy sektor — xalqaro ish beruvchi" integratsion modelini shakllantirish taklif etiladi. Ushbu modelning birinchi bosqichida xalqaro va milliy mehnat bozorining talablarini prognozlash, ikkinchi bosqichida talab etilayotgan kasblar bo'yicha kompetensiya proffillarini ishlab chiqish, uchinchi bosqichida o'quv dasturlarini ish beruvchilar bilan birgalikda shakllantirish, to'rtinchi bosqichida dual ta'lim va ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish, beshinchi bosqichida kompetensiyalarni mustaqil baholash va sertifikatlash, yakuniy bosqichida esa bitiruvchilarni milliy yoki xalqaro ish beruvchilar bilan bog'lash nazarda tutiladi.



Umuman olganda, tahlil natijalari davlat-xususiy sheriklikni o'rta bo'g'in kadrlar tayyorlashning alohida elementi sifatida emas, balki "mehnat bozori talabi — ta'lim dasturi — amaliy tayyorgarlik — malaka sertifikatsiyasi — bandlik" yagona zanjirini birlashtiruvchi institutsional mexanizm sifatida ko'rish zarurligini ko'rsatadi. Xalqaro tajribada ham davlat va xususiy sektorning hamkorligi ta'lim mazmunini sanoatdagi texnologik o'zgarishlarga moslashtirish, o'quv dasturlarining amaliy ahamiyatini oshirish va xususiy investitsiyalarni ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirish imkonini bergan. Shunday qilib, xalqaro mehnat bozoriga o'rta bo'g'in kadrlarni tayyorlashda davlat-xususiy sheriklikning samaradorligi, avvalo, xususiy sektorning ta'lim jarayonidagi ishtiroki qanchalik chuqur tashkil etilganiga bog'liq. Faqat moliyaviy resurslarni jalb qilishga asoslangan sheriklik modeli o'rniga mehnat bozori prognozi, o'quv dasturlarini birgalikda ishlab chiqish, dual ta'lim, ishlab chiqarish amaliyoti, pedagoglar stajirovkasi, zamonaviy uskunalar, kompetensiyalarni mustaqil baholash, xalqaro sertifikatlash va bitiruvchilar bandligini monitoring qilishni qamrab oluvchi kompleks modelni shakllantirish maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuv kasbiy ta'lim tizimining mehnat bozori bilan uzviy bog'liqligini kuchaytirib, o'rta bo'g'in mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA

O'tkazilgan tahlillar natijasida xalqaro mehnat bozoriga o'rta bo'g'in kadrlarni tayyorlash jarayonida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish professional ta'lim tizimining mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini oshirishning muhim mexanizmlaridan biri ekanligi aniqlandi. Globallashtirish, raqamlashtirish, texnologik yangilanish va ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashuvi natijasida ish beruvchilar tomonidan talab qilinayotgan kasbiy kompetensiyalar tarkibi muntazam o'zgarib bormoqda. Shu sababli kadrlar tayyorlash tizimini faqat ta'lim muassasalarining ichki imkoniyatlari asosida tashkil etish o'rniga davlat, ta'lim tashkilotlari va xususiy sektorning o'zaro hamkorligiga asoslangan integratsiyalashgan modelni shakllantirish zarur. Tadqiqot natijalari davlat-xususiy sheriklikning samaradorligi xususiy sektorni faqat moliyaviy resurs manbai sifatida jalb etish bilan cheklanmasligi kerakligini ko'rsatdi. Xususiy korxonalar mehnat bozorida talabni aniqlash, kasbiy kompetensiya proffillarini ishlab chiqish, o'quv dasturlarini takomillashtirish, dual ta'lim va ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish, zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy qilish, pedagoglarning malakasini oshirish, bitiruvchilarni baholash va ishga joylashtirish jarayonlarida faol ishtirok etishi lozim. Bunday yondashuv ta'lim mazmuni bilan real ishlab chiqarish talablari o'rtasidagi tafovutni kamaytirish imkonini beradi.

Davlat-xususiy sheriklik asosida dual ta'limni rivojlantirish ham alohida ahamiyatga ega. Xalqaro tajribada korxona va professional ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik o'quv dasturlarini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va ta'limdan bandlikka o'tishni yengillashtirish vositasi sifatida qo'llanadi. ILO tomonidan o'rganilgan modellar ham xususiy sektor bilan hamkorlikda o'quv dasturlarini ishlab chiqish va ularni amaliyot natijalari asosida takomillashtirish muhimligini ko'rsatadi. Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, har bir texnikum bo'yicha asosiy ish beruvchilar bilan uzoq muddatli davlat-xususiy sheriklik shartnomalarini shakllantirish; ikkinchidan, xususiy sektor ishtirokida kasbiy kompetensiyalar va o'quv dasturlarini muntazam yangilab borish; uchinchidan, dual ta'lim va korxonalardagi amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish; to'rtinchidan, korxonalarning texnikumlar moddiy-texnik bazasini rivojlantirishdagi ishtirokini rag'batlantirish; beshinchidan, pedagoglarning korxonalarda stajirovka o'tash mexanizmini kengaytirish; oltinchidan, bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini mustaqil baholash va xalqaro sertifikatlash tizimini rivojlantirish; yettinchidan, bitiruvchilarning ta'limni tamomlagandan keyingi bandligini muntazam monitoring qilish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, xalqaro mehnat bozoriga raqobatbardosh o'rta bo'g'in kadrlarni tayyorlash davlat, professional ta'lim muassasalari va xususiy sektorning uzviy hamkorligini talab qiladi. Davlat-xususiy sheriklikning samarali tashkil etilishi natijasida ta'lim dasturlarining amaliy yo'naltirilganligi, kasbiy kompetensiyalarning mehnat bozori talablariga muvofiqligi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasi va bitiruvchilarning bandlik imkoniyatlarini oshirish mumkin. Shu bois davlat-xususiy sheriklikni moliyaviy hamkorlikning alohida shakli sifatida emas, balki **kadrlar tayyorlash — malaka — bandlik — xalqaro mehnat bozori** o'rtasidagi uzviy aloqani ta'minlovchi kompleks institutsional mexanizm sifatida rivojlantirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son Farmoni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7166588>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Kasbiy ta'lim agentligi hamda Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 2026-yil 30-apreldagi 216-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-8168083>



3. International Labour Organization. Guidebook: Implementation of Public-Private Partnership in TVET. Geneva: ILO, 2019.
4. International Labour Organization. Public-Private Partnerships Benefit TVET Institutes and Industry Alike: Good Practices, Replication Steps and Way Forward. Geneva: ILO, 2018.
5. International Labour Organization. Case Study: Aligning Skills Development with Market Needs. Geneva: ILO, 2018.
6. International Labour Organization. Training for Employment. Report V, International Labour Conference, 88th Session. Geneva: ILO, 2000.
7. International Labour Organization. Technical and Vocational Education and Training (TVET). Geneva: ILO.
8. International Labour Organization. Building Resilient Funding Models for Dual Vocational Education and Training (VET) in Informal Economies. Geneva: ILO, 2026.
9. International Labour Organization. Technical and Vocational Education and Training (TVET) Reform Project: Final Results and Lessons. Geneva: ILO.
10. World Bank. Uzbekistan: Skills Development, Employment and Labor Market Development. Washington, DC: World Bank.
11. World Bank. Jobs and Skills Development in Uzbekistan: Policy and Institutional Perspectives. Washington, DC: World Bank.
12. OECD. Getting Skills Right: Future-Ready Adult Learning Systems. Paris: OECD Publishing.
13. OECD. Skills for Jobs Database. Paris: OECD.
14. UNESCO. Strategy for Technical and Vocational Education and Training (TVET). Paris: UNESCO.
15. International Labour Organization. The Future of Vocational Education and Training: Skills, Employment and Social Dialogue. Geneva: ILO.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Maqsudov Hasan

2026. № 4-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
